

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
«SMART QUILL PUBLISHING» NASHRIYOTI

AXBOROT XATI

Mamlakatimizda ta’lim, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “O‘zbekiston-2030” strategiyasi ijrosini ta’minlash maqsadida 2026-yil 1-aprel kuni: **“Yosh tadqiqotchilar va talabalar ilmiy faoliyatida innovatsiya, integratsiya va zamonaviy ta’lim muammolari: nazariya va amaliyot”** mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tadi.

KONFERENSIYA YO‘NALISHLARI:

- Tarix fanlari
- Falsafa fanlari
- Pedagogika va psixologiya fanlari
- Filologiya fanlari
- San’atshunoslik fanlari
- Iqtisodiyot, boshqaruv va siyosatshunoslik fanlari
- Texnika fanlari

MAQOLALAR QUYIDAGI TALABLARGA

JAVOB BERISHI SHART:

- Maqolalar konferensiya yo‘nalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida, amaliy tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;
- Maqola mavzusi bosh harflarda va qoraytirilgan holda yozilishi, keyingi qatordan muallifning ismi, familiyasi va sharifi, ish joyi, lavozimi va telefon raqami ko‘rsatiladi.
- Maqola muallifi (yoki mualliflari) shahsiy **elektron pochta manzili** va **ORCID** raqamini ko‘rsatishi shart;
- Maqola annotatsiyasi va kalit so‘zlar 3 tilda (o‘zbek, rus, ingliz) berilishi shart.
- Annotatsiya 150-200 ta so‘zdan iborat bo‘lishi zarur;
- Kalit so‘zlar maqola ichida mavjud bo‘lgan 7-8 ta so‘zdan iborat bo‘lishi lozim;
- Foydalanilgan adabiyotlar kamida 3-4 ta nomdagi adabiyotni tashkil etishi zarur.

- Maqolaga havola (snoska)lar [1,2...] ko‘rinishida va maqola so‘ngida “Foydalanilgan adabiyotlar” bandiga adabiyot sifatida ketma-ketlikda, tartib bilan havola raqami ko‘rsatilishi kerak.

- Maqoladagi ma’lumot va dalillarning aniqligi, to‘g‘riligi va ko‘chirmakashlikka yo‘l qo‘yilmaganligiga muallif javobgardir.

- Mavzuga tegishli bo‘lmagan, tahrir qilinmagan hamda imlo xatolari bilan taqdim etilgan maqolalar ilmiy to‘plamga kiritilmaydi.

- Maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Har bir maqolaga sertifikat va doi raqam beriladi.

Maqola uchun to‘lov 60 000 (oltmish ming) so‘mni tashkil etadi.

Ilmiy maqolalar 2026-yilning 26-mart sanasiga qadar qabul qilinadi.

Mualliflarga 1-aprel sanasida to‘plam taqdim etiladi.

**ILMIY MAQOLALAR QUYIDAGI MANZILDA
QABUL QILINADI:**

Mas’ul: Akbarov Raxmatillo

Telefon raqam: +998 93 057 43 20

Telegram manzili: https://t.me/rahmatillo_akbarov

Elektron manzil: Saidakbar01@mail.ru

NAMUNA

O‘ZBEK SHE’RIYATI IKKINCHI JAHON URUSHI XIZMATIDA

(Frontorti o‘zbek milliy matbuoti ma’lumotlari asosida)

Akbarov Raxmatillo Murtozali o‘g‘li

Namangan davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha PhD.

E-mail: Saidakbar01@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-1703-7735>

Namangan, Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Ikkinchi jahon urushi (1941–1945) davri o‘zbek milliy matbuotida chop etilgan she’riy asarlarning ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy ahamiyatini tahlil qiladi. Maqolaning maqsadi – o‘zbek she’riyatining xalqni fashizmga qarshi safarbar etish va vatanparvarlik ruhini shakllantirishdagi o‘rnini davriy matbuot materiallari asosida ochib berishdir. Tadqiqot obyekti sifatida “Qizil O‘zbekiston”, “Stalin haqiqati” kabi markaziy va viloyat gazetalari tanlab olingan bo‘lib, ularda e‘lon qilingan Oybek, G‘afur G‘ulom, Chustiy kabi shoirlar asarlari qiyosiy-tarixiy va germenevtik metodlar yordamida retrospektiv tahlil qilingan.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, urush davri she’riyati qudratli “ijtimoiy buyurtma” va mafkuraviy qurol vazifasini o‘tagan. Tadqiqotda harbiy-publitsistik lirikaning shakllanishi, mudofaa fondiga mablag‘ yig‘ish, Farhod GESi qurilishi hamda paxta strategik ahamiyatini targ‘ib qilish masalalari she’riyatda yetakchi o‘rin egallagani isbotlangan. Xulosa qilib aytganda, ushbu davr poeziyasi badiiy mahorat va ijtimoiy burch uyg‘unlashgan yuksak bosqichdir. Maqola ma’lumotlaridan O‘zbekiston tarixi, jurnalistika va adabiyotshunoslik yo‘nalishlarida darsliklar tayyorlash hamda urush tarixini xolisona o‘rganishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: O‘zbek milliy matbuoti, Ikkinchi jahon urushi, harbiy lirika, vatanparvarlik, frontorti mehnati, paxta strategiyasi, Farhod GES, badiiy targ‘ibot, ijtimoiy buyurtma, o‘zbek adabiyoti.

Abstract: This research analyzes the socio-political and ideological significance of poetic works published in the Uzbek national press during the Second World War (1941–1945). The purpose of the article is to reveal the role of Uzbek poetry in mobilizing the people against fascism and shaping the spirit of patriotism based on archival periodical materials. Central and regional newspapers such as "Qizil O‘zbekiston" and "Stalin Haqiqati" were selected as the object of study, where the works of poets like Oybek, Gafur Gulyam, and Chustiy were subjected to retrospective analysis using comparative-historical and hermeneutic methods.

The results indicate that wartime poetry served as a powerful "social order" and an ideological weapon. The study proves that the formation of military-journalistic lyrics, fundraising for the defense fund, the construction of the Farhod Hydroelectric Power Station, and the promotion of the strategic importance of cotton occupied a leading place in the poetry of the era. In conclusion, the poetry of this period represents a pinnacle where artistic mastery converges with social duty. The findings of the article can be utilized in developing textbooks on the history of Uzbekistan, journalism, and literary studies, as well as for the objective study of wartime history.

Keywords: Uzbek national press, Second World War, military lyrics, patriotism, home front labor, cotton strategy, Farhod HPS, artistic propaganda, social order, Uzbek literature.

Аннотация: В данном исследовании анализируется общественно-политическое и идеологическое значение поэтических произведений, опубликованных в узбекской национальной прессе в годы Второй мировой войны (1941–1945). Цель статьи – на основе материалов периодической печати раскрыть роль узбекской поэзии в мобилизации народа против фашизма и

формировании духа патриотизма. Объектом исследования выбраны центральные и областные газеты, такие как «Кизил Узбекистон», «Сталин хакикати», в которых произведения таких поэтов, как Айбек, Гафур Гулям, Чусты, подвергнуты ретроспективному анализу с помощью сравнительно-исторических и герменевтических методов.

Полученные результаты показывают, что поэзия военного времени выполняла функцию мощного «социального заказа» и идеологического оружия. В исследовании доказано, что в поэзии ведущее место занимали вопросы формирования военно-публицистической лирики, сбора средств в фонд обороны, строительства Фархадской ГЭС и пропаганды стратегического значения хлопка. В заключение отмечается, что поэзия этого периода является высшим этапом, где художественное мастерство сочетается с общественным долгом. Материалы статьи могут быть использованы при подготовке учебников по истории Узбекистана, журналистике и литературоведению, а также для объективного изучения истории войны.

Ключевые слова: узбекская национальная пресса, Вторая мировая война, военная лирика, патриотизм, труд в тылу, хлопковая стратегия, Фархадская ГЭС, художественная пропаганда, социальный заказ, узбекская литература.

Ikkinchi jahon urushi yillarida bolshevik hukumati turli millat va elatlardan tashkil topgan xalqlarni fashizmga qarshi bir butun holda birlashtirish uchun kuchli targ'ibot-tashviqot ishini olib borgan. Ushbu jarayonlarda o'zbek shoirlarining hissasi ham salmoqli hisoblanadi. Urush davri o'zbek she'riyatining o'ziga hos xususiyatlarini ilmiy tadqiq qilish masalasi – fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga O'zbekiston xalqining qo'shgan ulkan hissasini xolisona o'rganish ishining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot ishining asosiy manbalari O‘zbekiston SSR KP(b) Markaziy Komiteti, Toshkent oblasti va shahar komitetlari va O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining matbuot organi hisoblangan “Qizil O‘zbekiston” gazetasi hamda bir qator oblastlarning matbuot nashrlari, xususan, Namangan viloyatining – “Stalin haqiqati”, Samarqand viloyatining – “Lenin yo‘li”, Buxoro viloyatining – “Buxoro haqiqati” singari o‘zbek tilida nashr etilgan gazetalardir.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek she‘riyati haqida bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, sobiq sovet tuzumi davri tadqiqotlaridan – S.Mamajanovning “Ulug‘ Vatan urushi davrida o‘zbek adabiyoti” kitobi [1], R.Karimovning “Sovet O‘zbekistoni san‘ati Ulug‘ Vatan urushi yillarida”[2] nomli risolasi, istiqlol davrida Z.S.Safarovaning “Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston madaniyati”[3] kabi tadqiqotlarni misol sifatida keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot natijalari ham mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

She‘r arabcha: “shuur” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, – “sezgi” degan ma‘noni anglatadi. Keng ma‘noda fikrning his-tuyg‘uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she‘riy nutq bilan ifoda etilgan, ma‘lum ichki ohangga ega badiiy asar hisoblanadi[4]. She‘riyat lirikaning asosiy shakli bo‘lib, poeziya, nazm kabi nomlar bilan ham ataladi. O‘zbek she‘riyati uzoq asrlardan beri rivojlanib, yangi an‘analar bilan boyib borgan. Ikkinchi jahon urushi yillari ham ushbu jarayonlarda muhim bir davr bo‘ldiki, o‘zbek she‘riyati o‘zining taraqqiyotida yana bir bosqichga ko‘tarildi.

Zero, urush yillarida poeziya xalq va jangchilar orasida nihoyatda chuqur tomir otdi. U hamma uchun – jangchilar uchun ham, front orqasidagilar uchun ham, qariya va yoshlar uchun ham o‘tkir qurol, madadkor va ilhomchi bo‘lib qoldi[1:24].

Ikkinchi jahon urushi davri she‘riyati mamlakatdagi mavjud talab va muammolardan kelib chiqib, “ijtimoiy buyurtma” mahsuli sifatida vujudga keldi va to‘laqonli urush manfaatlari uchun hizmat qildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash lozimki, urush sharoitida asosiy tarkibi ayollar, qariyalar va bolalardan iborat bo'lgan O'zbekiston kolxozchilarining mehnat unumini yanada oshirib, jangohlarda kurash olib borayotgan armiya qudratini yanada mustahkamlashda o'zbek shoirlari ham juda katta o'rinni egallaydi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek milliy matbuoti sahifalarida chop etilgan she'rlar tahlili natijasida quyidagilar aniqlandi:

– ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek she'riyati yangi an'analar bilan boyidi. Harbiy lirika vujudga keldi. Publisistik lirika yanada rivojlandi;

– urushning dastlabki davrlarida matbuot yuzini ko'rgan she'riyatda fashizmning mohiyatini tushuntirish, uning insoniyatning "islohotchisi" emas, balki, ashaddiy dushmani ekanini anglatish, aholini dushmanga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash kabi jihatlar ustunlik qildi;

– armiyani issiq kiyimlar bilan ta'minlash, mudofaa fondiga mablag' to'plash, aholining lotoreya va harbiy zayomlarga bo'lgan harid quvvatini oshirishga qaratilgan she'rlar ham mavsumiy tarzda matbuot sahifalarida berib borildi;

– urush yillarida xalq qurilishlarida ommaviy mehnatni tashkil etish, ko'p normachilar sonini oshirish, erishilgan yutuqlarni badiiy usulda frontga yetkazish hamda jangchilar nomidan mehnat ahlini qutlashga qaratilgan she'rlarning chop etib borildi;

– O'zbek milliy matbuotida bosilgan ko'pgina she'rlar qishloq xo'jaligida mehnat unumini oshirishga hizmat qildi. Eng muhim ekinlar, xususan, paxta xosildorligini oshirishda o'zbek she'riyati katta ahamiyat kasb etdi.

Umumiy qilib aytganda, o'zbek she'riyati Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zining chaqiriq, ma'naviy ko'mak, dalda, hamdardlik va boshqa ruhiyati bilan O'zbekiston xalqining o'z burchini sharaf bilan bajarishida muhim omillardan biri bo'lib hizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мамажонов С. Улуғ ватан уруши даврида ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1975. – 172 бет.

2. Каримов Р. Совет Ўзбекистони санъати Улуғ Ватан уруши йилларида. – Т.: Ўзбекистон КП Марказий Комитетининг нашриёти, 1970. – 39 бет.

3. Сафарова З. С. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти: тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. – Самарқанд. 2020. – 141 бет.

4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/She%CA%BCr>

5. Қизил Ўзбекистон. – №.228 (5828). 1943, 4 ноябрь. – Б.4.

6. Қизил Ўзбекистон. – №.149 (5129). 1941, 26 июнь. – Б.2.

7. Қизил Ўзбекистон. – №.150 (5130). 1941, 27 июнь. – Б.2.

8. Қизил Ўзбекистон. – №.151 (5131). 1941, 28 июнь. – Б.2.

9. Қизил Ўзбекистон. – №.152 (5132). 1941, 29 июнь. – Б.2.